

## IQTISODIY SUDLARDA ISHLARNI APELLATSIYA INSTANSIYASI TARTIBIDA KO'RISHNING AYRIM MUAMMOLARI

Saidmuradov Najmuddin Nabijonovich

Surxondaryo viloyati yuridik texnikumi kafedra mudiri

[Jetwont86@mail.ru](mailto:Jetwont86@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

*Maqola Iqtisodiy sudlarda ishlarni appellatsiya instansiyasi tartibida ko'rishda ayrim muammolarni o'rganishga va bu muammolarga xorijiy davlatlar tajribasi misolida yechimlar berishga bag'ishlangan. Iqtisodiy sudlarda ishlarni appellatsiya instansiyasida ko'rيلayotganda milliy qonunchiligidiz - Iqtisodiy protsessual kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi va Oliy sud Plenum qarorlari tahlil qilingan. Qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar berildi.*

**Kalit so'zlar.** Apellatsiya, instansiya, shikoyat, protest, soddalashtirilga ish yuritish.

### АННОТАЦИЯ

*Статья посвящена изучению некоторых проблем при рассмотрении дел в хозяйственных судах в апелляционном порядке и предоставлению решений этих проблем на примере опыта зарубежных стран.*

*При рассмотрении дел в хозяйственных судах в апелляционной инстанции анализировалось наше национальное законодательство - Гражданский процессуальный кодекс, Гражданский процессуальный кодекс и решения Пленума Верховного Суда. Были внесены предложения по совершенствованию законодательства.*

**Ключевые слова.** Апелляция, инстанция, жалоба, протест, упрощенное производство.

### ABSTRACT

*The article is devoted to the study of some problems in the review of cases in economic courts in the order of appeals and to provide solutions to these problems on the example of the experience of foreign countries.*

*When the cases in the economic courts are considered at the appellate instance, our national legislation - the Code of Judicial Procedure and the decisions of the Plenum of the Supreme Court were analyzed. Proposals were made to improve the legislation.*

**Key words.** Appeal, instance, complaint, protest, simplified proceedings.

## KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizda barcha sohalarda keng ko‘lamlı islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar zamirida eng avvalo, inson, uning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalasi yotadi. Huquqiy demokratik davlat qurish va bozor iqtisodiyotiga o‘tishda sud-huquq islohotlari alohida o‘rin egallaydi. Mustaqillik yillarda sud-huquq tizimini erkinlashtirish va demokratlashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yilganini e’tirof etmoq lozim. Buning natijasida mamlakatimizda zamonaviy demokratiya talablariga javob bera oladigan sud tizimi shakllanmoqda. Sud bugungi kunda avvalgidek hukmron kommunistik tizimning qatag‘on va jazolash apparati emas, balki u har bir inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ishonchli tarzda qo‘riqlash va himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylanmoqda<sup>1</sup>.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Darhaqiqat, o‘tgan davr mobaynida jismoniy va yuridik shaxslarning sud organlariga bo‘lgan munosabatlari yangi davr kishisi singari ijobjiy tarafga o‘zgarib, murojaatlarning salmog‘i hamda sifati ortganligini, sud-huquq sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilganini ham ko‘rish mumkin. Shulardan eng asosiyлари sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4850<sup>2</sup> sonli Farmonida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida hal etish murojaatlarni ko‘rib chiqishda sansalorlik va befarq munosabatda bo‘lmaslik, shuningdek buzilgan huquqlarni tiklash bo‘yicha barcha zarur choralarini ko‘rish bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqish belgilangan.

Sud-huquq sohasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad sudni alohida hokimiyat sifatidagi o‘rnini yanada mustahkamlash, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishda sudyalarga chinakam mustaqillik berish, sud tizimini ishlarni faqat qonun hujjalariaga asoslangan holda ko‘radigan munosib sudyalar korpusi bilan shakllantirishdan iboratdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati

<sup>1</sup> Karimov I. A. Adolat – qonun ustuvorligida: Ikkinci chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasidagi ma’ruza, 2001-yil 29-avgust // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq ke-rak. 10-tom – T.: O‘zbekiston, 2002. – 26-b.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4850-sonli Farmoni //// (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2016-y., 43-son, 497-modda) //// (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2016 y., 43-son, 497-modda) // <https://lex.uz/docs/3050491>

samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 21-fevraldaggi PF-4966-sonli Farmoni<sup>3</sup> alohida o‘rin tutadi. Mazkur Farmon bilan 2017-yil 1-iyundan boshlab O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining ikkita oliy organi yagona organga birlashtirildi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi negizida yagona O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi . Chunki O‘zbekiston Respublikasida Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudining mavjudligi sud tizimini boshqarish vazifalarining takrorlanishiga va yagona sud amaliyotining ta’minlanmasdan qolishiga ham sabab bo‘layotgan edi Mazkur Farmon bilan xo‘jalik sudlari iqtisodiy sudlarga aylantirildi . Endilikda, iqtisodiy nizolar birinchi bosqichda tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlari tomonidan ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi. Viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda esa ishlarni appellatsiya va kassatsiya instansiylarida ko‘rish amaliyoti joriy etildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Iqtisodiy (oldin xo‘jalik) protsessida appellatsiya instansiysi joriy qilinganidan buyon o‘tgan davr mobaynidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda appellatsiya instansiysi birinchi instansiya sudlarining kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari va ajrimlarini qayta ko‘rib, qonuniy hal qilish bo‘yicha o‘zining samarali instansiya ekanligini isbotlamoqda. Ammo shunga qaramasdan iqtisodiy ishlarni appellatsiya tartibida sudda ko‘rish bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish iqtisodiy protsessual qonunchiligida appellatsiya institutiga oid normalarni yanada takomillashtirish, axborot texnologiya vositalaridan foydalanish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Yuqoridaqilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda amaliyotda iqtisodiy sudlarida appellatsiya instansiyasida ish yuritish bilan bog‘liq muammolar yuzasidan ham ilmiy, ham huquqiy jihatdan ishlab chiqilgan asosli tegishli xulosa va takliflar berishning zarurligi mavzuimizning dolzarb ekanligini anglatadi.

Mazkur mavzuni taddiq etish jarayonida bitiruv malakaviy ishida iqtisodiy protsessual qonunchiligida appellatsiya institutining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda appellatsiya instansiyasining ahamiyati va iqtisodiy protsessida tutgan o‘rni, milliy qonunchiligidan bo‘yicha birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan appellatsiya shikoyati berish (protest keltirish) hamda ishni appellatsiya instansiyasida ko‘rish tartibi va uning protsessual xususiyatlariga va ayrim xorijiy davlatlar iqtisodiy (xo‘jalik) protsessual qonunchiligi

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 21-fevraldaggi PF-4966-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.07.2018 y., 06/18/5487/1543-son) // <https://lex.uz/docs/3121087>

bo'yicha appellatsiya institutining ayrim jihatlarining yoritilishiga alohida to'xtalib o'tish bilan bir qatorda, mazkur malakaviy ishda, jumladan, bugungi kunda iqtisodiy protsessual qonunchiligidagi appellatsiya instansiysi bo'yicha amaliyotda vujudga kelayotgan quyidagi muammolar tadqiq etiladi:

**Birinchidan**, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 277-moddasida belgilangan appellatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish muddatini qayta ko'rib chiqish;

**Ikkinchidan**, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 262-moddasining uchinchi xatboshida nazarda tutilgan Apellatsiya shikoyatini (protestini) berishning o'tkazib yuborilgan muddatini tiklash masalasini ko'rib chiqish;

**Uchinchidan**, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan shikoyat berilganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan ishni ko'radigan appellatsiya instansiysi sudining O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 278-moddasi beshinchi bandida va 281-moddasi 3-qismi 3-bandida nazarda tutilgan vakolatini qayta ko'rib chiqish;

**To'rtinchidan**, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida appellatsiya instansiyasida ish yuritishni tartibga soluvchi normalarni yanada takomillashtirish.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

**Birinchidan**, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 277-moddasida belgilangan appellatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish muddatini qayta ko'rib chiqish;

Bugungi kunda amaliyotda iqtisodiy ishlar bo'yicha birinchi instansiya sudlari tomonidan chiqarilagan sud hujjatlari (qaror, hal qiluv qarori, ajrim) ustidan berilgan appellatsiya shikoyati (protesti)ni appellatsiya instansiysi tomonidan ish yurituviga qabul qilingandan so'ng uni ko'rish muddati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual qodekisining 277-moddasida qo'yidagicha norma belgilangan. Unga ko'ra, Apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan berilgan appellatsiya shikoyatini (protestini) appellatsiya shikoyati (protesti) ish yuritishga qabul qilingan kundan e'tiboran bir oydan ortiq bo'limgan muddatda ko'rib chiqadi.

Sudning soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan, huquqiy ta'sir chorasi qo'llash to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyati (protesti) sudga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida ko'rib chiqilishi belgilangan. Bu bir oylik muddat huddi birinchi instansiya sudi tomonidan ishni ko'rish muddati bilan bir xil hisoblanadi. Apellatsiya instansiyasi protsessual

xususiyati va ish hajmiga ko‘ra birinchi instansiya sudi bilan farq qiladi. Asosan appellatsiya instansiyasida ish hajmi birinchi instansiyasi ish hajmidan farq qilib, kam ish hajmiga ega, shuningdek, appellatsiya instansiyasidagi xodimlar birinchi instansiya sudidagi xodimlarga nisbatan ancha tajribali hisoblanadi. Shuning uchun birinchi instansiya sudiga berilgan ishni ko‘rish muddati bir oylik muddatni appellatsiya instansiyasiga ko‘llamaslik kerak. O‘yashimcha, appellatsiya instansiya sudi tomonidan shikoyat (protest) ish yurituviga qabul qilingandan so‘ng ishni ko‘rib chiqish muddatini bir oydan yigirma kunga o‘zgartirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki, appellatsiya instansiyasi bu yigirma kunlik muddatda ham ishni ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega. Shuningdek, Sudning soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilgan, huquqiy ta’sir chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarorini ham o‘n besh kunlik muddatdan o‘n kunlik muddatga o‘zgartirish kerak. IPK nazarda tutilgan birinchi instansiya sudlari tomonidan chiqarilgan ajrimlar ustidan berilgan appellatsiya shikoyati (protesti)ni ham ko‘rish muddati umumiyligi bo‘lgan bir oylik muddatdan yigirma kunlik muddatga o‘zgartirish lozim. Ayrim xorijiy davlatlarning qonunchilagini o‘rganib chiqqanimda, ishn ko‘rish muddati bir oylik, o‘n besh kun yoki yigirma kunlik ekanligini aniqladim. Bu muddatni yigirma kunlik muddatga kamaytirish bir qancha ijobjiy tomonlari mavjud. Masalan, tadbirkorlik subyektlarining vaqt va sarf-xarajatni tejashga, sudlar tomonidan ishlarni ko‘rishi mas’uliyatni oshishiga olib keladi. Tadbirkorlik subyektlari uchun vaqt va sarf-harajatning kamaytirilishi rivojlanishning eng muhim omili hisoblanadi.

Alovida hollarda appellatsiya shikoyatini (protestini) ko‘rib chiqish muddati sud raisi tomonidan ko‘pi bilan bir oyga uzaytirilishi IPK belgilangan. Mazkur muddatni ham yigirma kunga o‘zgartirish lozim. Amaliyatda, muddatning uzoq bo‘lishi ish sifati va sudlarga bo‘lgan ishonchning susayishiga olib kelishi mumkin. Appellatsiya instansiyasi buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ekan, tezda qonuniy va adolatli qarori chiqarishi kerak. Shunda sudning nufuzi fuqarolar ko‘z o‘ngida asosiy himoya vositasi bo‘lib ko‘rinadi.

**Ikkinchidan,** O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 262-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan Appellatsiya shikoyatini (protestini) berishning o‘tkazib yuborilgan muddatini tiklash masalasini ko‘rib chiqish, jumladan, appellatsiya shikoyati (protesti) berish muddatini tiklashni iltimosnomaga bilan murojaat qilish muammoli vaziyat hisoblanadi. Chunki sud qanday sabablarni uzrli deb topishni qonun normalarida belgilanmagan. O‘zbekiston Respublikasi IPKning 262-moddasi uchinchi qismiga ko‘ra, Appellatsiya shikoyatini (protestini) berishning o‘tkazib yuborilgan muddati, shikoyat (protest) bergen shaxsning iltimosnomasi

bo‘yicha appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan, agar iltimosnama hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e’tiboran ikki oydan kechiktirmasdan berilgan va appellatsiya shikoyatini (protestini) berish muddati o‘tkazib yuborilishining sabablari sud tomonidan uzrli deb topilgan bo‘lsa, tiklanishi mumkinligi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumlariga murojaat qiladgan bo‘lsak ham, bu borada aniq tushuntirishlar belgilanmagan. Faqat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi Plenumining “Iqtisodiy sudlar tomonidan protsessual muddatlardga oid qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi Qarorining 25.3.bandida Apellatsiya va kassatsiya shikoyatini berishning o‘tkazib yuborilgan protsessual muddatini tiklash uchun:

appellatsiya va kassatsiya shikoyatini berish to‘g‘risidagi masalani yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) bilan kelishish lozimligi,

rahbar yoki vakilning xizmat safarida, mehnat ta’tilida yoxud davolanishda bo‘lganligi,

huquqshunos lavozimining vakantligi yoki ushbu shtat birligining mavjud emasligi,

rahbarning almashganligi,

shuningdek yuridik shaxsning boshqa turli ichki tashkiliy muammolari kabi boshqa holatlar uzrli sabablar deb baholanmasligi lozimligi bo‘yicha tushuntirishlar berilgan. Ya’ni bundan boshqa bo‘lgan holatlarni uzrli sabablar deb topish sud’yaga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bu esa bir qancha muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, muddatni tiklash bo‘yicha iltimonoma bilan murojaat qilish mumkinligining muddati qat’iy ikki oydan oshmasligi ham belgilangan. Mana shu qat’iy ikki oylik muddatni qayta ko‘rib chiqib uni uch oyga o‘zartirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Aksariyat hollarda, uzrli sabablar deb topish uchun bo‘lgan holatlarga uch oylik muddat oqilona muddat hisoblanadi. Ayrim xorijiy davlatlarni protsessual qonunchilikini shuni ko‘rsatadiki (masalan Ukrainianada uch oy, Rossiyada olti oy, Germaniyada olti oy) bu muddat uch oy, olti oy qilib belgilangan ekan. Xuddi shuningdek, qanday sabablarni uzrli deb topish bo‘yicha sudyalarga aniq bo‘lgan qoidalarni qonunchilikka kiritish kerak. IPKning 262-moddasi uchinchchi qismiga uzrli deb topishni, ya’ni appellatsiya shikoyati berish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxsning kassallik bilan bog‘liqligi, ma’muriy huququzarlik bo‘yicha qamoq jazo berilganligi, davolanishda bo‘lganligi, fors-major holatlarni va boshqalarni uzrli sabab dep topishni taklif sifatida kiritar edim. Shuningek, mazkur sabablarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-dekabrdagi “Apellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan

Iqtisodiy protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida” 26-sonli qaroriga kiritishni tavsiya qilar edim.

Shunda sud va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida muammolar kamaygan bo‘lardi. Bu esa sudga bo‘lgan ishonchning oshishiga olib keladi.

**Uchinchidan,** O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 278-moddasida beshinchi bandida nazarda tutilgan birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan shikoyat berilganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan ishni ko‘radigan appellatsiya instansiyasi sudining vakolatlaridan biri bo‘lgan IPK 279-moddasining to‘rtinchi qismining 4-bandida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda hal qiluv qarorini bekor qilishga va ishni birinchi instansiya sudiga yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborish vakolatini IPK 278-moddasidan chiqarish taklifini bergen bo‘lar edik.

IPKning 279-moddasi to‘rtinchi qismining 4-bandida birinchi instansiya sudi tomonidan iqtisodiy ishni ko‘rib chiqishda protsessual huquq normalariga rioya qilinmagan bo‘lsa, ya’ni agar:

ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlarini to‘g‘risida sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinganligi natijasida chiqarilgan hal qiluv qarori majburiy tartibda bekor qilinib ish yangida ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yuboriladi. Demak, appellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudi tomonidan ishni ko‘rishda mazkur protsessual qoidaga rioya qilmagan bo‘lsa, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini har qanday holda bekor qiladi va ishni birinchi instansiya sudiga yangidan ko‘rib chiqish uchun yuboradi. Appellatsiya instansiyasi sudiga yuqoridagi holat mavjud bo‘lganda birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini bekor qilish vakolati berilgan holda, keyinchalik mazkur iqtisodiy ishni appellatsiya instansiyasi sudining o‘zi tomonidan ko‘rib qonuniy hal etish vakolatining berilmaganligi bugungi kunda amaliyotda birinchi instansiya sululari tomonidan protsessual huquq normasi (ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlarini to‘g‘risida sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinganligi natijasida chiqarilgan hal qiluv qarori) buzilgan holda ko‘rilgan iqtisodiy ishlarning qayta ko‘rilib qonuniy hal etilishi muddatlarining asossiz ravishda uzayib ketishiga va bu ishda ish yakunidan manfaatdor bo‘lgan taraflarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Iqtisodiy protsessual kodeksida, appellatsiya instansiyaga quyi turuvchi sudning qarorini o‘zgartirgan yoki bekor qilgan taqdirda ishni yangidan ko‘rib chiqishga yubormasdan turib, yakuniy qaror chiqarish bo‘yicha vakolatlar berilganida ortiqcha ovoragarchilik, ortiqcha sarf-xarajat va eng muhimmi ortiqcha vaqt ketmagan bo‘lar edi. Shuningdek, aksariyat

holatlarda amaliyotda appellatsiya sudlarida birinchi instansiya sudi qabul qilgan hal qiluv qarorini bekor qilib yangidan ko‘rish uchun quyi suldarga yuborilgan iqtisodiy ishlar bo‘yicha qabul qilgan hal qiluv qarori ishni birinchi marta ko‘rgan sudning qabul qilgan qarori bilan deyarli bir xil mazmunda qaror qabul qilinadi. Bu esa, birinchi instansiya sudi moddiy huquq normalalarini to‘g‘ri qo‘llab, protsessual qonun normalalarini buzgan yoki noto‘g‘ri qo‘llagan bo‘lishi mumkin.

Shu sababli IPKning 279-moddasi to‘rtinchchi qismidagi 4-bandida nazarda tutilgan asos mavjud bo‘lganida, ya’ni birinchi instansiya sullari tomonidan iqtisodiy ishni ko‘rishda protsessual huquq normalariga rioya qilinmagan bo‘lsa ham appellatsiya instansiyasi sudiga birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini bekor qilib yangi hal qiluv qarori chiqarish vakolatini berish taklifini bergan bo‘lar edik. Jumladan, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston kabi MDH davlatlarining Xo‘jalik, Arbitraj protsessual kodekslarini o‘rganib chiqqanimda ham appellatsiya instansiyasi sudining ishni ko‘rish yakuni bo‘yicha mazkur turdag‘i vakolati nazarda tutilmaganligining guvohi bo‘ldim. Ya’ni ishni yangidan ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborish.

**To‘rtinchidan,** O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida appellatsiya instansiyasida ish yuritishni tartibga soluvchi normalarni yanada takomillashtirish, jumladan, appellatsiya instansiyasida ish yuritish bo‘yicha appellatsiya shikoyati (protesti)ni sud ishlarini yuritishga qabul qilish tartibi, appellatsiya shikoyati (protesti)ni rasmiylashtirish, ish yurituvini to‘xtatib turish asoslarini aniq belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki, bugungi kunda appellatsiya instansiyasida mazkur jarayonlar Iqtisodiy protsessual kodeksida birinchi instansiya sullari uchun nazarda tutilgan umumiylashtirilmoqda. Vaholanki, appellatsiya instansiyasida ish yuritishning birinchi instansiya sudida ish yuritishdan farqli va alohida jihatlari, protsessual xususiyatlari mavjud va ular bir-biridan o‘zaro farq qilishi lozim.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. // (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-sod) // <https://lex.uz/acts/20596>
2. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020 y., 03/20/607/0279-sod) // <https://lex.uz/docs/3523891>

3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020 y., 03/20/608/0278-son) // <https://lex.uz/docs/3517337>
4. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldaggi yangi tahrirdagi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.03.2020 y., 03/20/607/0279-son) // <https://lex.uz/acts/68532>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4850-sonli Farmoni // (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 43-son, 497-modda) // <https://lex.uz/docs/3050491>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidag”gi PF-4966-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.07.2018-y., 06/18/5487/1543-son) // <https://lex.uz/docs/3121087>
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2019-yil 24-dekabrdagi “Apellatsiya va cassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan Iqtisodiy protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida” 26-sonli qarori. // <https://lex.uz/docs/4712908>
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 2015-yil 19-iyundagi 283-sonli «Iqtisodiy sudlar tomonidan protsessual muddatlarga oid qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi qarori. // <https://lex.uz/docs/2712887>
9. Арбитражный процессуальный кодекс Российской Федерации от 24.07.2002 № 95-ФЗ (редакция от 25.12.2018. // <https://dokumenty24.ru/>
10. Хозяйственный процессуальный кодекс Республики Беларусь от 17 июля 2019 г. № 233-З // <https://etalonline.by/document/?regnum=HK9800219>
11. Хозяйственный процессуальный кодекс Украины // <http://uazakon.ru/hpk>
12. Гражданский процессуальный кодекс Франции (Версия, вступившая в силу 11 июля 2019 г.)/ [www.legifrance.gouv.fr](http://www.legifrance.gouv.fr)
13. Гражданский процессуальный кодекс Германии от 1 октября 1879 года В редакции от 20 ноября 2015 г. [http://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_zpo/englisch\\_zpo.html#p3588](http://www.gesetze-im-internet.de/englisch_zpo/englisch_zpo.html#p3588)

- 
14. E.Egamberdiev. Sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish // Sud-huquq islohotlari: hozirgi holati va takomillashtirish istiqbollari. – T.: TDYUI, 2007. – 380 b.
  15. R.T.Berdiyorov. Xo‘jalik protsessual huquqi. O‘quv qo‘llanma. T.: TDYUU, 2014.
  16. Q.Komilov, M.Ergashev. Iqtisodiy sudlarga murojaat qilish tartibi. Amaliy qo‘llanma. – Tashkent: ILMIY-TEXNIKA AXBOROTI – PRESS NASHRIYOTI, 2018. -232 b.
  17. Abdusalomov, M.Azimov, X.Burxandxojaev. O‘zbekiston Respublikasi Xo‘jalik protsessual kodeksiga sharhlar. –T: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. 2002 yil. Voronov
  18. M.M.Mamasiddiqov. Fuqarolik protsessi: o‘quv qo‘llanma / Toshkent: Baktria press, 2014. – B. 388.
  19. V.V.Yarkov. Arbitrajnyi protsess: uchebnik. – 6-e izd, pererab. i dop. – M., 2010. – 880 s
  20. Z.N.Esanova (mualliflar jamoasi). Iqtisodiy protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2019